

4.4-mavzu. Mahalliy ekologik tashabbuslar va maktablarda qo'llaniladigan amaliyotlar

Maqsad: Mahalliy tashabbuslar asosida ekologik muammolarni aniqlash va yechim taklif etishda mos qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Reja:

1. Mahalliy tashabbuslarning ta'limgagi o'rni va ahamiyati
2. Mahalliy ekologik tashabbuslarning asosiy turlari va ularning maqsadlari
3. Maktab miqyosida amalga oshiriladigan ekologik amaliyotlar va loyiҳalar
4. Xulosa

Mahalliy ekologik tashabbuslar – bu muayyan hududda, ayniqsa ta'limga muassasalari doirasida amalga oshiriladigan, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan tashkiliy-amaliy faoliyatlaridir. Ushbu tashabbuslar maktablarda o'quvchilarning ekologik kompetensiyalarini shakllantirishda va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ekologik muammolarga bevosita aralashish orqali o'quvchilar hayotiy tajriba orttiradi, ekologik ong va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi.

UNESCO va UNEPning ekologik ta'limga konsepsiylarida maktablar "barqaror rivojlanish agentlari" sifatida ko'rildi. Shuningdek, ekologik ta'limga mahalliy ekologik konteksti inobatga olish asosiy tamoyil sifatida belgilanadi. A.V. Mudrikning ijtimoiy faoliyat pedagogikasi nazariyasida bolalar shaxsiy tajriba orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishda ko'nikma hosil qiladi. Shunday qilib, mahalliy ekologik tashabbuslar nafaqat bilim, balki amaliy faollilikni ham rivojlantiradi.

Maktabda qo'llaniladigan amaliyotlar (real misollar asosida)

1. "Mening yashil matabim" loyiҳasi mazmuni: Maktab hududidagi ekologik sharoitni yaxshilash (yashil maydon, chiqindi qutilari, daraxt ekish, tomorqa zonasi ajratish).

"Mening yashil matabim" loyiҳasi – maktab hududini obodonlashtirish, yashil hududlarni kengaytirish, chiqindilarni samarali boshqarish, ekologik monitoring yuritish va resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror ekologik muhit yaratish faoliyatidir.

Loyiha maqsadlari:

- O'quvchilar ekologik madaniyatini oshirish;
- Yashil hududlar (daraxtzor, gulzor, tomorqa zonasi) tashkil etish;
- Tuproq, havo, suv kabi tabiiy omillar monitoringi orqali ilmiy asoslangan tajriba yuritish;
- Mahalliy ekologik muammolarni hal qilishga o'quvchilarni jalb etish;
- "Ekologik xarita" orqali maktab infratuzilmasini ekologik jihatdan baholash.

Maktab hududini ekologik xaritalash (GPS asosida)

Maktab hududi, mavjud daraxtlar, chiqindi joylari, hojatxonalar, ochiq maydonlar GPS yordamida raqamlashtiriladi va xaritaga tushiriladi.

Ekologik xaritalash muhit monitoringi uchun zarur bo‘lib, ekologik landshaft strukturasini baholashga imkon beradi (Davlat ekologik qo‘mitasi tavsiyalari, 2022). Ish bosqichlari: O‘quvchilar GPS ilovalari orqali hududni o‘lchaydi; har bir ekologik obyektga (daraxt, chiqindi qutisi, manba) koordinata belgilanadi, xarita asosida yashil hududni kengaytirish rejasi tuziladi va quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi.

- Hududni xaritalash (GPS orqali);
- Yashil hudud uchun tuproq tahlili;
- Daraxt va butalar ekish, ularning fenologik kuzatuvlari;
- Qurilish chiqindilarini saralash va chiqindisiz xonalarni tashkil qilish.

Urban ekologiya tamoyillariga ko‘ra, 1 o‘quvchiga kamida 10 m² yashil maydon to‘g‘ri kelishi tavsiya etiladi (WHO, 2021).

Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik g‘oyalari jamiyatning barcha qatlamlariga – ayniqsa yoshlarga o‘z vaqtida yetkazilishi zarur. Shu nuqtai nazardan maktablar faqat bilim beruvchi emas, balki ekologik ongni shakllantiruvchi, amaliy mas’uliyatni tarbiyalovchi markazga aylanishi kerak.

“Yashil maktab” kontseptsiyasi dunyo bo‘yicha keng tarqalgan bo‘lib, u maktab infratuzilmasini va o‘quv muhitini ekologik jihatdan barqaror holga keltirishga qaratilgan. UNESCO (2017) ma’lumotlariga ko‘ra, ekologik jihatdan barqaror ta’lim muassasalari ekologik kompetensiyalarni shakllantirishda 2,5 baravar yuqori natijaga ega.

2. “**Eko-bog‘**. Bir o‘quvchi – bir ko‘chat” loyihasi o‘quvchilarni biologik xilma-xillikni anglashga, tirik organizmlarning o‘sish sharoitlarini kuzatishga, ekologik barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligi asoslarini tushunishga o‘rgatadi.

Loyiha maqsadlari:

- O‘quvchilarda ekologik va agrar tafakkurni shakllantirish;
- Amaliy tajriba orqali o‘simliklarning o‘sishi, parvarishi va agrotexnikasi haqida bilim berish;
- O‘simliklar hayoti orqali tabiiy omillar o‘zaro ta’sirini kuzatish;
- Mahalliy ekologik sharoitga mos bog‘ yaratish.

Har bir sinf yoki o‘quvchi o‘z tanlagan daraxt yoki o‘simlik ko‘chatini ekadi, suv quyadi, o‘simlikning o‘sishini o‘lchaydi, fenologik o‘zgarishlarni jurnalga qayd qiladi. Ko‘chat parvarishi orqali o‘quvchilar ekofiziologiya, fenologiya, fotosintez va transpiratsiya jarayonlari bilan bevosita tanishadilar. Mavsumiy kuzatuvalar orqali ekologik sharoitlar (namlik, yorug‘lik, tuproq turi) va o‘simlik o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqliknini tushunadilar.

Loyiha davomida quyidagi ko‘rsatkichlar o‘lchanadi.



Maktab oshxonasidan olingen organik chiqindilar (sabzavot po‘choqlari, choy qoldig‘i, tuxum po‘chog‘i) alohida konteynerda yig‘iladi, quruq barg, qog‘oz bilan

aralashtiriladi, namlik va harorat nazorati bilan fermentatsiyaga qo‘yiladi. Kompostlash – aerob parchalanish jarayoni bo‘lib, mikroorganizmlar ishtirotida organik moddaning humusga yani maydalanib parchalanishi va kukun holatiga aylanishini ta’minlaydi. Bu jarayon orqali o‘quvchilar biogeokimyoiy aylanishlar, mikroorganizmlar roli va tuproq unumdorligini oshirish haqida amaliy bilimga ega bo‘ladilar (FAO, 2021).

O‘quvchilar kompost massasining harorati (har kuni termometr bilan o‘lchanadi), namlik (qo‘lda sinov yoki torf namlagich bilan), kompostning pishib yetilishi (hid, rang, struktura) kuzatib, nazorat qiladilar.

XXI asrda ekologik muammolarning chuqurlashuvi yosh avlodning atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantirishni pedagogik vazifalarning markaziga olib chiqdi. Eko-marafonlar va ekologik tadbirlar – bu o‘quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirish, barqaror rivojlanish g‘oyalarini amaliyatga joriy qilish va jamiyatga ijobiy ekologik xatti-harakat namunalarini ko‘rsatish vositasidir. UNESCO (2022) tomonidan e’tirof etilganidek, “ekologik ongni shakllantirishda emotsiional va ijtimoiy jihatdan jalb etuvchi faoliyatlar o‘quv jarayonini ancha samarali qiladi”.

Mahalliy ekologik tashabbuslar, ekologik ta’limni hayotga yaqinlashtiradi, o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi orqali ekologik kompetensiyalarni shakllantiradi, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytiradi, barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.